



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



BO'LAJAK O'QITUVCHILARGA JADID MA'RIFATPARVARLARINING TA'LIMIY G'OYALARINI O'QITISH METODIKASI

Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna

pedagogika kafedrasи mudiri p.f.d., professor, Alfraganus universiteti

Atamuradova Guljon Komilovna

Alfraganus universiteti pedagogika fakulteti 2- kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarining ilg'or ta'limi g'oyalari va ularni bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatishning samarali metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Jadidlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan ta'lim konsepsiysi, zamonaviy fanlar bilan uyg'unligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan g'oyalari bugungi pedagogik jarayonda dolzarbligicha qolmoqda. Maqolada interfaol metodlar, ko'rgazmali vositalar, ijodiy topshiriqlar va integrativ yondashuvlar orqali mazkur g'oyalarni o'rgatish yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ta'lim metodikasi, bo'lajak o'qituvchilar, ma'rifatparvarlik, milliy qadriyatlar, interfaol metodlar, pedagogika, zamonaviy ta'lim.

Аннотация: В данной статье анализируются передовые образовательные идеи джадидских просветителей и эффективные методические подходы к их преподаванию будущим учителям. Образовательная концепция джадидов, основанная на национальных и духовных ценностях, их гармония с современными науками и стремление развивать критическое мышление остаются актуальными в современном педагогическом процессе. В статье представлены способы преподавания этих идей с использованием интерактивных методов, наглядных средств, творческих заданий и интегративных подходов.

Ключевые слова: джадидизм, методика обучения, будущие учителя, просветительство, национальные ценности, интерактивные методы, педагогика, современное образование.

Annotation: This article analyzes the advanced educational ideas of Jadid intellectuals and effective methodological approaches for teaching them to future educators. The Jadids' educational concept, based on national and spiritual values, their integration with modern sciences, and their focus on developing critical thinking remain relevant in today's pedagogical process. The article presents





methods for teaching these ideas through interactive methods, visual aids, creative tasks, and integrative approaches.

Keywords: *Jadidism, educational methodology, future teachers, enlightenment, national values, interactive methods, pedagogy, modern education.*

Kirish. O‘zbekiston tarixida jadidchilik harakati o‘zining ma’rifiy, ijtimoiy va madaniy qarashlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Ushbu harakat vakillari – jadid ma’rifatparvarlari – xalqni zamonaviy bilim va tafakkur bilan qurollantirish orqali jamiyatni taraqqiy ettirishni maqsad qilgan edilar. Hozirgi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarga ularning ilg‘or ta’limiy g‘oyalarni o‘rgatish muhim metodik yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqolada aynan shu metodik yondashuvlar yoritiladi. Jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy merosi bugungi o‘qituvchilar uchun bebaho manbadir. Bo‘lajak pedagoglarni ushbu meros bilan tanishtirish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ularni o‘qitish jarayonida metodik yondashuvlarni takomillashtirib borish davr talabi hisoblanadi [1].

Jadidlar – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ulamolar – maktab va madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni ta’lim tizimiga kiritish, milliy ongni yuksaltirish tarafdori bo‘lganlar. Ularning quyidagi g‘oyalari dolzarbligicha qolmoqda:

- Milliy va dunyoviy bilim uyg‘unligi
- O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
- Tarbiya va ma’naviyatni ta’lim bilan uyg‘un holda olib borish
- Ayollar ta’limiga e’tibor qaratish
- Milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni shakllantirish

Bugungi kunda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida jadidchilik tarixini o‘rganish faqat tarixiy faktlar asosida emas, balki amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali olib borilishi zarur.

1. Faol o‘qitish metodlaridan foydalanish
 - Interfaol metodlar (klaster, “aqliy hujum”, debatlar) orqali talabalarni jadidlar qarashlari asosida muammolar ustida fikrlashga yo‘naltirish.
 - Case-study – tarixiy holatlar asosida zamonaviy ta’lim muammolariga analogiya qilish.
2. Ko‘rgazmali va raqamli ta’lim vositalari
 - Jadidlar hayoti va faoliyati haqida hujjatli filmlar, elektron taqdimotlar orqali dars samaradorligini oshirish.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- Jadidlarning asarlari asosida raqamli resurslar yaratish va ularni dars jarayonida qo‘llash.

3. Ijodiy-tahliliy topshiriqlar

- Talabalarga jadid asarlaridan parchalar berib, ularni tahlil qilish, bugungi kun ta’limi bilan qiyoslash.
- “Agar siz Behbudiy o‘rnida bo‘lganingizda, hozirgi ta’limni qanday isloh qilgan bo‘lardingiz?” kabi ijodiy vazifalar.

4. Integrativ yondashuv

- Jadidlar g‘oyalarini faqat “Ta’lim tarixi” yoki “Pedagogika” fanida emas, balki “Ma’naviyat asoslari”, “Milliy g‘oya” kabi fanlar bilan uyg‘unlashtirib o‘rgatish.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarga jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy g‘oyalarini o‘rgatish bo‘yicha metodik yondashuvlar aniqlash va takomillashtirish maqsad qilingan. Jadid ma’rifatparvarlarining asarlari, pedagogik qarashlari va ularning ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilindi. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadidlarning pedagogik merosi o‘rganildi [2]. Jadidlarning ta’limiy qarashlari zamonaviy pedagogik konsepsiylar bilan solishtirilib, o‘xshashlik va farqlar aniqlashtirildi. Bu orqali ularning g‘oyalari nechog‘lik bugungi ta’limga mos tushishi ko‘rsatib berildi. Pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning dars jarayonlarida ushbu mavzu bo‘yicha qiziqlishi, faol ishtiroki va mavzuni o‘zlashtirish darajasi kuzatildi. Muayyan guruhda interfaol metodlar (klaster, debat, keys-stadiy) asosida darslar o‘tkazilib, ularning samaradorligi baholandi. Talaba-o‘qituvchilardan jadidlarning g‘oyalari haqidagi bilim darajasi va metodik yondashuvlar bo‘yicha fikrlar olindi. Natijalar tahlil qilinib, metodik takliflar ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali jadid g‘oyalarini o‘rgatish jarayonida eng samarali usullar aniqlab olindi va ularni pedagogik amaliyatga tatbiq etish bo‘yicha xulosalar berildi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy g‘oyalari bugungi ta’lim jarayonida o‘ta muhim va dolzarb hisoblanadi. Xususan, ularning o‘quvchilarni erkin fikrlashga, milliy g‘urur va ma’naviyatga asoslangan tarbiyaga yo‘naltiruvchi qarashlari hozirgi pedagogik talablar bilan hamohangdir. Bu g‘oyalarni bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatishda innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Tajribaviy darslar jarayonida aniqlanishicha, interfaol metodlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar faoliyatini sezilarli darajada oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va tarixiy-ma’naviy merosga nisbatan ongli munosabat shakllantiradi. Ayniqsa, keys-stadiy, debat va guruhli tahlil mashg‘ulotlari talabalarni faollashtirishda muhim vosita





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



bo'ldi. Shuningdek, jadidlar tomonidan ilgari surligan ayollar ta'limi, axloqiy tarbiya, zamonaviy fanlarni o'rganish, milliylik va dunyoviylik uyg'unligi kabi konsepsiylar bugungi ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlari bilan uyg'un keladi [3].

Bu holat mazkur g'oyalarni bo'lajak o'qituvchilarga chuqur va tizimli tarzda o'rgatish zaruratini yuzaga keltiradi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shuki, aksariyat talabalar jadidlar faoliyati haqida faqat tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lishgan, ammo ularning ta'limiy-metodik qarashlari chuqur tahlil qilinmagan. Bu esa, o'z navbatida, pedagogika fanlari doirasida jadidlar merosini integratsion tarzda o'rganishni takomillashtirishni talab qiladi [4]. Umuman olganda, jadid ma'rifatparvarlarining ilg'or pedagogik g'oyalarni zamonaviy o'qituvchilik faoliyatiga uyg'unlashtirish – yosh avlodga milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar asosida ta'lim berishning muhim omilidir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy g'oyalari nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi uchun muhim metodologik manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ularning ilg'or pedagogik qarashlari – erkin fikrlash, milliylik, ma'naviyat, zamonaviy fanlarni o'zlashtirish va ayollar ta'limiga e'tibor qaratish kabi g'oyalalar – bugungi kunning pedagogik talablariga to'liq javob beradi. Bo'lajak o'qituvchilarga ushbu g'oyalarni samarali o'rgatish uchun interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, integrativ yondashuvlar va amaliy-tahliliy topshiriqlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Dars jarayonida jadidlar hayoti va asarlarini chuqur tahlil qilish, ularni hozirgi ta'lim jarayoni bilan bog'lab tushuntirish, talabalar ongida mustahkam ilmiy-ma'naviy asos yaratadi. Shu munosabat bilan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida jadid ma'rifatparvarlarining merosini o'rgatish tizimini takomillashtirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliy mashg'ulotlar orqali ularni chuqur o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarori. – 2020 yil 26-iyun.
2. Mamarasulov O. Pedagogika tarixi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
3. Rasulov B. Zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Vahobov A., Yusupov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Oliy ta’lim, 2017.
5. Tojiboyeva D. Jadidchilik va pedagogik meros // *Ilmiy-amaliy pedagogik jurnal*, 2021, №2, 45–50-betlar.

